



ERTA AJRIMNING ASOSIY SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'NALISHLARI

Ibrohimova Sitora Ilhomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 28-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 06-mart 2023 yil

KEY WORDS

oila, oila psixologiyasi, nikoh, ajrim, oila kodeksi, ajrimlar statistikasi, noto'liq oilalar, namunali oilalar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalgan oilada yuz beradigan nizolar, munosabatlardagi tanazzul hamda erta ajrimlarga sabab bo'layotgan omillar va bu ajrimlarning sonini kamaytirish yo'llari yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etiladi.

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarining shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi.

Shu o'rinda bir necha savollar vujudga keladi, jamiyatimizda yangi tashkil topayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori-chi?

Bugungi kunda oilalarning barpo etilishida kimlar yoki qanday omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda?

Asrlar davomida oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida barqarorligini ta'minlash jamiyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalgan. Binobarin, xalq muayyan oilalardan tashkil topar ekan, uning barqarorligini, oilalarning tinch-totuvligi mamalakatning rivoji va istiqbolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina.

Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalangan, nurli, pir-u badavlat otaxon va onaxonlar ko'z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqa oilalar uchun ham namunadir. Ming afsuslar bo'lsinki, zamonaviy hayotimizda ajralish jamiyatning eng muhim ijtimoiy muammasidan biri hisoblanadi. Shu sababli xorijiy davlatlarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammasini o'rganishga kech ilmiy jamoatchilik jalb etilmoqda.

Asosiy qism

Hozirda O'zbekistonda oilalar barqarorligini ta'minlash, er-xotin o'rtasidagi ajralishlar sonini kamaytirish, oilani saqlab qolish imkonini beradigan ko'plab tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy choralar belgilangan va bu boradagi huquqiy asoslar yaratilgan. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori va boshqa qonun va qonunosti hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Taassuflar bo'lsinki, shunga qaramasdan ,statistika ma'lumotlari er-xotin o'rtasidagi ajralishlar sonining o'sib borish dinamikasini ko'rsatadi va bu holat ayniqsa, yirik shaharlarda yuqori ekani hech birimizga sir emas.

Statistik tahlillarga ko'ra, 2022-yil 1-yanvardan 1-iyungacha O'zbekistonda oilaviy ajrimlar soni 23 foizga oshgan. Bunda ushbu davr oralig'ida 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p. Xususan, sudlarning tegishli qarorlariga asosan - 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida - 5 812 ta ajrim holati qayd etildi.

Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan va Toshkent shaharda eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Bunda :

- Samarqand viloyati - 368 ta
- Farg'ona viloyati - 793 ta
- Qashqadaryo viloyati - 368 ta
- Andijon viloyati - 800 ta
- Surxondaryo viloyati - 353 ta
- Namangan viloyati - 706 ta
- Toshkent viloyati - 693 ta
- Toshkent shahri - 732 ta
- Buxoro viloyati - 184 ta
- Jizzax viloyati - 248 ta
- Qoraqalpog'iston Respublikasi - 76 ta
- Xorazm viloyati - 176 ta
- Navoiy viloyati - 109 ta
- Sirdaryo viloyati - 206 ta ajrim kuzatildi¹.

Mutaxasislarning aytishicha, oiladagi shaxslararo munosabatlarning yomonlashuvi xususan, ajrimlar uchun asosiy sabab er-xotin o'rtasidagi maishiy kelishmovchiliklar, qaynona, qaynota yoki uchinchi shaxs, umuman boshqalarning oila ishiga aralashuvi, farzandsizlik, ichkilikbozlik va moddiy yetishmovchiliklar, turmush o'rtog'ining ishsizligi va iqtisodiy muammolar sabab bo'lmoqda. Oilaviy ajralishlar salbiy ta'sir ko'rsatadigan uch asosiy holatni tahlil qilsak :

Jamiyat uchun - noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, fohishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarining ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimoiy faolligi susayadi;

Erkak uchun - yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar;

Ayol uchun - yolg'izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli kasalliklar, o'z joniga qad qilish va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, muammo qanchalik murakkab bo'lmasin, albatta, uning yechimi bo'ladi. Jamiyatimiz hayotidagi erta ajrim va noto'liq oilalarning sonini kamaytirishning samarali yechimlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

¹ <https://kun.uz/uz/news/>

1. Texnika – telefon, ijtimoiy tarmoqlar – Telegram, Instagram, Facebook va shunga o`xshash inson tafakkuri mahsuli bo`lgan narsalarning hayotimizning asosiy qismiga aylanib qolmasligiga yo`l qo`ymaslik lozim. Oilaga uchun sarflanishi kerak bo`lgan vaqtning ijtimoiy tarmoqlar uchun sarflanishini oldini olish kerak.

2. Yosh oilalarga qaynona, qaynota va boshqa uchinchi shaxslarning o`zboshimchalik bilan aralashuvini bartaraf etish. Ya`ni O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3-moddasida keltirilgan “oilaviy munosabatlarga aralashishga yo`l qo`yilmasligi” bandining amalda keng miqyosda qo`llanishi.

3. Yangi barpo etilayotgan oilalarda ikki taraf ham bir – birining yetti pushtini surishtirib, sovchilik instituti orqali bir – biriga mos keladigan yoshlarni taqdirini bog`lash.

4. Garchi ayni paytda FHDYO organlari qoshida Oila dorilfununlari tashkil etilib, nikohlanuvchi yoshlar 1 oylik o`quv kurlarida qatnashayotgan bo`lsa ham ajrimlar soni kamaygani yo`q. Shu o`rinda aytish joizki, 18-20 yil oilada singdirilmagan ko`nikmalar 1 oy davomida tushuntirilishining imkoni yo`q. Shuning uchun har bir farzandni ota-onalari yoshlik davrlaridan katta hayotga tarbiyalab, zarur ko`nikmalarni berib borsa, namunali oila bo`lib ularga o`nak bo`lsa vaziyat ancha ijobiy tarafga o`zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, hamma gap baribir yoshlarning oila haqidagi tasavvuri va uning atrofidagi masalalarga borib taqaladi. Kalavanning uchuni davlat tashkilotlarining yoinki ota-onalarning qo`liga tutqazib qo`yish emas, chigallikni hamjihatlikda yechishga urinish, turli yo`llar bilan bo`sa-da, er-xotin o`rtasidagi ajralishlar sonini kamaytirish, oilalarning bir butunligi va barqarorligini saqlab qolish borasidagi mexanizmlarni kuchaytirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish nafaqat, zamon talabi, ayni vaqtda siz-u bizning asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramaova F. A., Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: Shams, 2002. – 25b.
2. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Oilaviy hayotni o`rganishga oid psixologik testlar. T.: Shams, 2002. – 58b.
3. <https://kun.uz/uz/news/>